ULAMOLAR MIGRATSIYASI VA TRANSREGIONAL ALOQALAR: UMAR FARG'ONIYNING MUSTANSIRIYYA MADRASASIDAGI FAOLIYATI

Abdushukurov Ahror Maxmud o'g'li

Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi usulul fiqh fani o'qituvchisi,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti

Qabul qilindi: 14.10.2026
Ko'rib chiqildi: 15.10.2026
Tasdiqlandi: 16.10.2026

O'rta asrlarda musulmon Sharqida ilmlarning tarqalishi, diniy-ma'rifiy markazlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi va ulamolarning turli hududlar bo'ylab harakatlanishi intellektual hayot taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Olimlarning bir shahardan ikkinchi shaharga ko'chib borishi ularning shaxsiy ilmiy kamolotiga xizmat qilish bilan birga, diniy-huquqiy bilimlar va ta'lim an'analarining boshqa mintaqalarda yoyilishiga ham yetarlicha imkon yaratib ber olgan.

Mazkur jarayonlarni o'rganishda Farg'onada shakllanib, Bag'dod ilmiy muhitida faoliyat olib borgan Roshididdin Abu Hafs Umar Farg'oniyning hayot yo'li alohida ahamiyatga ega. Tarixiy-biografik manbalarda u hanafiy mazhabining yetuk vakili, bir necha ilm sohalarini egallagan olim va Mustansiriyya madrasasida faoliyat yuritgan mudarris sifatida tavsiflanadi. Ushbu tezisning maqsadi Umar Farg'oniyning ilmiy migratsiyasi, turli hududlar bilan aloqalari va Mustansiriyya madrasasidagi faoliyatini mavjud manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Manbalarda olimning ismi Roshididdin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Umar ibn Muhammad Abu Nasr Farg'oniy Hanafiy tarzida keltiriladi[1]. Abdulqodir Qurashiy esa uning nasabini boshqa shaklda qayd etib, "Uning to'liq ismi Umar ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abu Umar ibn Muhammad ibn Abu Nasr Abu Hafs Andikoniy Farg'oniydir" deya keltiradi[2]. Bunday tafovutlar o'rta asr biografik adabiyotlaridagi ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, manbalarda uning hanafiy fiqhiga mansub faqih sifatidagi mavqei va Mustansiriyya muassasasidagi ta'lim jarayonlariga doir faoliyati alohida ta'kidlanadi[3].

[1] Ibn Fuvatiy. Al-havadisul jamia fil miati sabia/ Mahdiy Najm tahqiqi. – Bayrut/Livan: Darul kutubil ilmiyya, 2002. – B.73.

[2] Abdulqodir Qurashiy. Al-javahirul muziyya fiy tabaqotil hanafiyya. – Hindiston: Majlisi dairotil maarifin nizomiyya matbaasi, – J. Ⅰ. – B.396.

[3] Nojiy Ma'ruf. Tarixi ulamail mustansiriyya. – Bag'dod: Oniy matbaasi, 1959. – B.50.

Umar Farg‘oniy dastlab o‘zi tug‘ilib o‘sgan Farg‘ona diyorida fiqh ilmini o‘rgangan. Keyinchalik Bag‘dodga kelib, Shihobiddin Umar Sahravardiy[4] bilan muloqotda bo‘lgan. Manbalarda uning Mansur jome masjidi yaqinidagi Zuzaniy kulbasida yashab, tasavvuf bilan shug‘ullangani qayd etiladi. So‘ngra u Vosit va unga yaqin hududlarga borib, Banu Rifoiy qabilasi orasida bir necha yil yashagan. Shu davrda zohidlik va tasavvuf an’anasini o‘zlashtirgan. Manbaga ko‘ra, ularga fiqh va adabiyotdan ta’lim bergan, ularning husnixatlarini ham yaxshilashga yordam bergan[5].

Bu ma’lumotlar olimning safarlari faqat shaxsiy ta’lim olish bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi. Uning turli hududlarda istiqomat qilishi mahalliy aholi bilan aloqalar o‘rnatish va bilimlarini boshqalarga yetkazish imkonini ham bergan. Demak, Umar Farg‘oniyning hayot yo‘lida ilm olish, ma’naviy va ruhiy tajriba orttirish hamda ta’lim berish bir-birini to‘ldiruvchi faoliyat yo‘nalishlari bo‘lgan.

Biografik tavsiflarda Umar Farg‘oniy ko‘p qirrali olim sifatida tasvirlanadi. Ibn Najjor unga fiqh, usulul fiqh, xilof, kalom, falsafa va arab tili sohalarida yetuklikni nisbat beradi. Shuningdek, uning husnixat, nazm va nasrda mahoratga ega bo‘lgani qayd etiladi. Tasavvuf, zuhd, ibodat, tavoze va muloyimlik kabi jihatlarning ham unda mavjud bo‘lganligi borasida tarixiy manbalarda alohida ta’kidlab o‘tilgan[6].

Yuqoridagi tavsiflar Umar Farg‘oniyning ilmiy qiyofasini faqat fiqh bilan cheklamaslik lozim ekanligini ko‘rsatadi. Uning turli fanlarni bilishi va ta’lim bergani o‘sha davr olimlari faoliyatining ko‘p yo‘nalishli bo‘lganini anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, manbada uning hadis rivoyati bilan bog‘liq faoliyati cheklangan tarzda yoritilgan. Ibn Najjor undan hadis rivoyat qilinmaganini qayd etadi, biroq Ibn Qatiyiyga “Sahihul Buxoriy”ning aksar qismini o‘qib berganini eshitganini ham tilga oladi[7].

Umar Farg‘oniyning faoliyatidagi muhim bosqich Bag‘doddagi Mustansiriyya madrasasi bilan bog‘liq. Abdulqodir Qurashiy ma’lumotiga ko‘ra, madrasa xalifa Mustansir tomonidan Dajla daryosi bo‘yida qurdirilgan. Uning qurilishi 625/1227-yilda boshlangan va 631/1233-yil rajab oyida ochilgan. Madrasada to‘rt sunniy mazhab vakillari, muhaddislar va boshqa ilm egalari faoliyat olib borgan[8].

Mustansiriyya madrasasining ahamiyati unda turli mazhablar vakillariga ta’lim berish uchun sharoit yaratilgani bilan bog‘liq. Manbalarda shofe’iy, hanbaliy

[4] To’liq ismi Shihobiddin Umar ibn Muhammad Bakriy Shofeiy bo’lib, mutasavvif va Bag’doddagi shayxlar shayxi bo’lgan. U amakisi Najib Sahravardiyning qo’lida tasavvuf va nafs tarbiyasi bilan mashg’ul bo’lgan. 632/1234-yilda vafot etgan.

[5] Ibn Fuvatiy. Al-havadisul jamia fil miati sabia/ Mahdiy Najm tahqiqi. – Bayrut/Livan: Darul kutubil ilmiyya, 2002. – B.73.

[6] Salohiddin Safadiy. Al-vafiy bil vafayat/ Ahmad Arnaut va Turkiy Mustafo tahqiqi. – Bayrut/Livan: Daru ihyait turosil arabiy, 2001. – J.ⅩⅩⅢ. – B.23

[7] Nojiy Ma’ruf. Tarixi ulamail mustansiriyya. – Bag’dod: Oniy matbaasi, 1959. – B.51.

[8] Abdulqodir Qurashiy. Al-javahirul muziyya fiy tabaqotil hanafiyya. – Hindiston: Majlisi dairotil maarifin nizomiyya matbaasi, – J. Ⅰ. – B.396.

va molikiy yo‘nalishlar bo‘yicha dars bergan ayrim olimlar ham tilga olinadi. Bu ma’lumotlar madrasaning ilmiy tuzilmasi va undagi ta’lim jarayonini kengroq tarixiy asosda ko‘rish imkonini beradi.

Abdulqodir Qurashiy: “Ushbu madrasada to‘rt mazhab faqihlari, muhaddislar va boshqa ilm egalari faoliyat olib borgan. Ushbu madrasaning qurilishi 625/1227-yilda boshlanib, u 631/1233-yil Rajab oyining beshinchi sanasi payshanba kunida ochilgan. Ushbu madrasada xuddi Umar Farg‘oniy singari hanafiy mazhabidan boshqa mazhab faqihlari ham ta’lim berishgan. Shofeiy mazhabi bo‘yicha ta’lim bergan olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo bo‘lib, u fazilat sohibi bo‘lgan. Hanbaliy mazhabi bo‘yicha ilk mudarris Yunus ibn Abdurahmon ibn Javziydir. Ammo madrasa ochilgan vaqtda molikiy mazhabi bo‘yicha dars beruvchi olim bo‘lmagan. Faqatgina mag‘riblik Muhammad ismli faqih ularga mazhab asosida ta’lim bergan. U bir yildan so‘ng madrasani tark etib, o‘rniga Abdurahmon ibn Muhammad ibn Umar Basradan kelgunga qadar “muid” vazifasini bajarib kelgan. Abdurahmon ibn Muhammad madrasada Iskandariyya ahlidan bo‘lgan Abdulloh ibn Abdurahmon ibn Umar ismli molikiy faqih kelguniga qadar bir muddat ta’lim bergan. U madrasada 633/1235-yil Safar oyining o‘ninchi sanasi payshanba kunida dars berishni boshlagan” deya keltirib o‘tgan[9].

Manbaga ko‘ra, Umar Farg‘oniyga avval Tutushiya[10] madrasasida ta’lim berish taklif qilingan, ammo u bu taklifni rad etgan. Keyinchalik Mustansiriyya madrasasida hanafiy mazhabi talabalariga dars taklifi berilganda bir necha bor rad qilib, so‘ngra qabul qilgan. Abdulqodir Qurashiy uni mazkur madrasada hanafiy fiqhi bo‘yicha mudarrislik qilgan ilk olim sifatida tavsiflaydi[11]. Umar Farg‘oniy umrining oxirigacha ushbu ta’lim muassasasida faoliyat olib borgan.

Olimning Farg‘onadan Bag‘dodga kelib, nufuzli madrasada dars berishi transregional aloqalarning muhim ko‘rinishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu yerda “transregional” tushunchasi turli mintaqalar o‘rtasidagi ilmiy va ta’limiy aloqalarni anglatadi. Umar Farg‘oniyning hayot yo‘li doirasida bu aloqalar olimning hududlararo harakati, turli joylarda bilim berishi va Bag‘doddagi institutsional ta’limga qo‘shilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, olimning migratsiyasini faqat bir yo‘nalishdagi ko‘chish sifatida tushunish yetarli emas. Manbada Farg‘ona, Bag‘dod, Vosit, Shom, Arabiston yarimoroli va Sinjor kabi hududlar qayd etilgan[12]. Ularning har biri Umar Farg‘oniyning hayotida turlicha vazifani bajargan. Ayrimlari dastlabki ta’lim va shakllanish joyi, boshqalari esa ma’naviy tajriba, safar yoki ta’lim faoliyati bilan bog‘liq.

[9] Abdulqodir Qurashiy. Al-javahirul muziyya fiy tabaqotil hanafiyya. – Haydarobod/Hindiston: Majlisi dairotil maorifin nizomiyya matbaasi, – J. I – B.396.

[10] Ushbu madrasa sharqiy Bag’doddagi hanafiy fiqhiga ixtisoslashtirilgan madrasalardan biri bo’lib, saljuqiy hukmdorlardan Tutush ibn Alparslonga nisbat beriladi. Q: https://ar.wikipedia.org/wiki

[11] Yuqoridagi manba, o’sha bet.

[12] Nojiy Ma’ruf. Tarixi ulamail mustansiriyya. – Bag’dod: Oniy matbaasi, 1959. – B.51.

Umar Farg‘oniy 632/1234-yil rajab oyining o‘ninchi sanasida vafot etgan. Ibn Najjor uning janozasida ko‘plab taniqli olimlar va boshqa kishilar qatnashganini, Xiyzaron[13] qabristoniga dafn etilganini qayd etadi[14]. Bu xabar uning Bag‘doddagi ilmiy-diniy muhitda tanilgan shaxs bo‘lganini ko‘rsatuvchi biografik dalillardan biridir.

Roshididdin Abu Hafs Umar Farg‘oniyning ilmiy tarjimayi holi XIII asrda ulamolar migratsiyasi va mintaqalararo ilmiy aloqalarning ayrim jihatlarini yoritadi. Uning Farg‘onada fiqhni o‘rganishi, Bag‘dod va boshqa hududlarda istiqomat qilishi, turli joylarda ta’lim berishi hamda Mustansiriyya madrasasida hanafiy fiqhi bo‘yicha mudarrislik qilishi ilmlarning hududlar bo‘ylab harakatlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni ko‘rsatadi.

Umuman, Umar Farg‘oniyning hayot yo‘li Markaziy Osiyo va Bag‘dod o‘rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni shaxs faoliyati misolida o‘rganish imkonini beradi. Kelgusida ushbu masalani chuqurroq yoritish uchun o‘rta asr biografik manbalarini qiyosiy tahlil qilish, olimning ilmiy aloqalari va shogirdlari haqidagi ma’lumotlarni aniqlashtirish hamda Mustansiriyya madrasasining ta’lim tarixini qo‘shimcha manbalar asosida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abdulqodir Qurashiy. Al-javahirul muziyya fiy tabaqotil hanafiyya. – Hindiston: Majlisi dairotil maarifin nizomiyya matbaasi.
2. Ibn Fuvatiy. Al-havadisul jamia fil miati sabia/ Mahdiy Najm tahqiqi. – Bayrut/Livan: Darul kutubil ilmiyya, 2002.
3. Nojiy Ma’ruf. Tarixi ulamail mustansiriyya. – Bag’dod: Oniy matbaasi,
4. Salohiddin Safadiy. Al-vafiy bil vafayat/ Ahmad Arnaut va Turkiy Mustafo tahqiqi. – Bayrut/Livan: Daru ihyait turosil arabiy, 2001.
5. Jaloliddin Suyutiy. Bug’yatul vuat fiy tabaqotil lug’aviyyina van nuhat/ Muhammad Abulfazl Ibrohim tahqiqi. – Misr: Iso Bobiy nashriyoti, 1384/1965.

[13] https://ar.wikipedia.org/wiki
[14] Nojiy Ma’ruf. Tarixi ulamail mustansiriyya. – Bag’dod: Oniy matbaasi, 1959. – B.52.